

**VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNING HAQ-HUQUQLARI
ПРАВА НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ
RIGHTS OF MINORS**

Boymurotova Marjona Xolboyevna

AQXAI yurisprudensiya yo'nalishi 1-108- guruh talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada voyaga yetmagan shaxslarning tug'ilgandan voyaga yetgunlariga qadar bo'lgan haq-huquqlari yoritib berilgan.*

***Аннотация:** В данной статье описаны права несовершеннолетних от рождения до совершеннолетия.*

***Abstract:** This article describes the rights of minors from birth to adulthood.*

***Kalit so'zlar:** konstitutsiya, qonun, bola, ota- ona, davlat, vasiylik va homiylik organlar.*

***Ключевые слова:** конституция, закон, ребенок, родители, государство, органы опеки и попечительства.*

***Key words:** constitution, law, child, parents, state, guardianship and patronage bodies.*

KIRISH

Bolalar saodati va ularning huquqlari doimo xalqaro hamjamiyatning diqqat e'tiborida bo'lib kelgan. Bolalar o'z huquq va manfaatlarini to'la amalga oshira olmaganligi sababli bola huquqlarni ta'minlab berish, bolalarni har tomonlama yetuk komil inson qilib tarbiyalash masalalari jamiyatimizda qadimdan muhim masala bo'lib kelgan .

Avvalo, bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning birinchi moddasiga ko'ra "18 yoshga to'lmagan har bir inson zoti bolaga nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha agar u ertaroq balog'atga yetmagan bo'lsa, bola hisoblanadi" deb keltirib o'tilgan. Bundan shuni ko'rish mumkinki , 18 yoshga to'lmagan har bir shaxs bola hisoblanadi . Ammo mamlakat ichkarisida qo'llaniladigan milliy qonunchiliklarga ko'ra agar u ertaroq balog'atga yetgan deb topilgan bo'lsa, bunday holatlar mustasno hisoblanadi. Bolalar alohida g'amxo'rlik va yordam huquqiga egadirlar. Jamiyatning asosiy tashkiloti hisoblanmish oila va atrof muhit uning barcha a'zolari ayniqsa bolalar o'sib ulg'ayishlari va farovonlikka ega bo'lishlari sog'lom va har tomonlama uyg'unlashgan holda kamolotga yetishi uchun, u oila g'amxo'rligida baxt, mehr- muhabbat va ongli tushunish vaziyatida , jamiyatda mustaqil hayotga to'la tayyorlanishi, ayniqsa tinchlik, qadr-qimmat , sabr-toqat huquq va erkinliklar, tenglik va birdamlik ruhida tarbiyalanish lozim .

Har bir bola uchun ko'zda tutilgan huquqlarni hech qanday kamchiliklarsiz rangi , jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari , milliy , etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi bolaning sog'ligi va tug'ilishi , uning onasi yoki qonuniy vasiysi yoki boshqa biron-bir holatlardan qat'iy nazar hurmat qilinishi va huquqlari ta'minlanilishi kerak. Bularning amalda bajarilishi uchun ijtimoiy masalalar bilan shug'ullanuvchi davlat va xususiy muassasalar, sudlar yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan bolaning huquqlari va manfaatlari yaxshiroq ta'minlanishiga e'tibor berilishi lozim. Ma'lumki, huquqiy hujjatlar asosida har bir bola tug'ilgan zahoti ro'yxatga olinadi va tug'ilgan daqiqasidan boshlab ism bilan atalish va fuqarolikka ega bo'lish, shuningdek iloji boricha o'z ota-onasini bilish va ular g'amxo'rliklaridan bahramand bo'lish huquqlariga egadir. Shuningdek, bola o'zining fikrini erkin ifodalash vijdon, erkinligi , bilim olish, dam olish , mehnat qilish hamda ota onasi turli davlatlarda yashayotgan bola alohida holatlardan tashqari , otasi va onasi bilan muntazam ravishda shaxsiy munosabatlar va to'g'ridan to'g'ri aloqalar bog'lab turish huquqiga ega hisoblanadi . Hozirgi zamonning dolzarb muammolardan biri bola huquqlari va erkinliklarining har tomonlama ta'minlanishi va himoyalaniishi amalda qonunlar asosida bajarilishini

ta'minlashdir . Chunki voyaga yetmagan shaxslar o'z huquq va erkinliklarini o'zlari mustaqil ravishda to'la amalga oshira olmaydi . Shuning uchun voyaga yetmagan shaxslarning huquq va erkinliklari , hamda qonuniy manfaatlarini ularning ota-onalari , ularning o'rnini bosuvchi boshqa shaxslar, sud , prokuratura organlari , vasiylik va homiylik idoralari amalga oshiradi.

Vasiylik -ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, 14 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan shug'ullanuvchi organ hisoblanadi. Homiylik- ota- ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voya yetmaganlar huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun tuzilgan organ hisoblanadi. Bola huquqlarini himoya qilish muhim masala ekanligini bola huquqlari sohasida qabul qilingan xalqaro miqyosdagi hujjatlar asosida ham bilishimiz mumkin. Bola huquqlari sohasidagi xalqaro hujjatlar turkumiga quyidagilarni olishimiz mumkin: 1)1924 yilgi bola huquqlari Jeneviya deklaratsiyasi 2)1959 yil 20- noyabrda BMT Bosh Assambleyasidan tomonidan qabul qilingan bola huquqlari deklaratsiyasi, 3)1989 yil 20- noyabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya va shunga o'xshash ko'pgina hujjatlarni misol keltirishimiz mumkin. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya bola huquqlari bo'yicha asosiy hujjat hisoblanadi , hamda uning bola huquqlariga oid o'ziga xos kodifikatsiyalash desa ham bo'ladi. Konvensiya 54 ta moddani o'z ichiga olgan bo'lib, ularni 4 ta kategoriyadagi huquqlarga bo'lib olishimiz mumkin. a) yashay olish huquqi; bola talablarni qondirish va hayotiy huquqlarini o'zida mujassam etish kabi , asosiy shartlarni hamda tibbiy xizmatdan foydalana olish, ovqatlanish, boshpanaga ega bo'lish kabi adolatli me'yorlarni o'z ichiga oladi.b)rivojlani olish huquqi; bolalar o'z qobiliyatlarini kengroq rivojlantirishga erishishlari zarur masalan ,bilim olish, o'yin, hordiq chiqarishi, madaniy faoliyatlar ,axborot olish va vijdoniy poklik kabi huquqlar. c) bolalar zo'ravonlik va eksplotatsiya qilinishidan himoyalangan bo'lishlari shart. Bu borada quyidagi muammolariga ya'ni qochoq bolalar masalalaridagi muammolarga , sudlovni amalga oshirish , zo'ravonliklarga va qiynoqlarga bolalarni, qurolliy mojarolariga jalb etish muammolariga, bolalar

mehnatiga balog'at yoshiga yetmaganlarni jinsiy ekspultatsiya qilish muammolariga alohida e'tibor berilgan bo'lishi kerak . d) ishtirok etish huquqi bolani jamiyat va mamlakat hayotida faol ishtirok etishga chorlaydi. Bu kategoriya bolalarning hayotga taalluqli bo'lgan muammolar bo'yicha jahonshumul yig'ilishlarida va tadbirlarda ishtirok etish huquqini va o'z fikr-mulohazalarini aytishda erkin bo'lish kabi huquqlarni belgilaydi. Bolalar ulg'ayib borishlari davomida jamiyat hayotida faol ishtirok etish uchun berilayotgan imkoniyatlarning hammasiga ega bo'lib borishlari hamda hayotiy muhim yechimlarning mahsulotlarini his qilgan holda, ularni o'z zimmalariga olishga tayyor bo'lishlari kerak.

Bundan tashqari bola huquqlari sohasida faoliyat ko'rsatuvchi xalqaro miqyosdagi tashkilotlar va qo'mitalar mavjud. Bola huquqlari bo'yicha qo'mita bu qo'mita bu bola huquqlarini rag'batlantirish uchun kurashayotgan konvensiya qatnashchisi bo'lgan barcha davlatlar o'rtasida muntazam muloqot yo'lga qo'lishini ta'minlash vazifasini amalga oshirish va jahon bolalarining tinchligi va farovonligiga tahdid soluvchi omillarni aniqlab muayyan muammolarning amaliy yechimini izlamoqda va ularni hal qilish uchun odamlarni va moliya resurslarni safarbar etish choralarini ko'rmoqda, hamda jamoatchilikning xabardorlik darajasini oshirishga shuningdek, bola huquqlarni himoya qilish va rag'batlantirishdagi ishtirokini kengaytirishga ko'maklashmoqda. Bola huquqlari bo'yicha konvensiyaning 6- moddasiga binoan yashash huquqi har bir bolaning ajralmas huquqi hisoblanishi belgilab qo'yilgan bo'lib, bolaga nisbatan jinoyat sodir qilish og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi. Bolalar jinoyati esa yengillashtiruvchi holat hisoblanadi va bolalar jinoyat protsessida ishtirok etayotganda kamida quydagi huquqlarga ega bo'lishlari kerak: aybsizlik prezumpsiyasi; unga qarshi qo'yilgan ayblar haqida o'ziga zarurat tug'ilgan taqdirda , uning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi orqali kechiktirmasdan va bevosita, ma'lum qilish hamda o'zning himoyasini tayyorlash va amalga oshirishda huquqiy va boshqa xil yordam olishi; ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan vakolatli mustaqil va xolis odam yoki sud organizgani tomonidan ishni

adolatli tarzda ko'rish davomida qonunga muvofiq ravishda advokat yoxud boshqa tegishli shaxs ishtirokida, agar bu bolaning eng yaxshi manfaatlariga zid keladi, deb hisoblanmasa xususan uning yoshi yoki ota-onasi yoxud qonuniy vasiylarining mavqe hisobga olingan holda hech kechiktirmasdan qaror qabul qilinishi; guvohlik ko'rsatmasi berish yoki aybga iqrор bo'lishga majburlashdan erkinlik, ayblash bo'yicha guvohlarning ko'rsatmalarini yohud mustaqil ravishda yoxud boshqa shaxslar yordamida o'rganib chiqish hamda himoya guvohlarning teng ravishdagi ishtiroki va ularning ko'rsatmalarini o'rganishni ta'minlash ; agar bola jismoniy qonunchilikni buzgan deb hisoblanmasa , yuqori turuvchi vakolatli mustaqil va xolis organ yoki sud tomonidan tegishli qarorni va u bilan bog`liq holda qabul qilingan har qanday choralarni, qonunga muvofiq ravishda takroran ko'rib chiqish; agar bola foydalanilayotgan tilni tushunmasa yoki bu tilda gapirolmasa tarjimonning bepul yordam berishi ; ishni ko'rib chiqishning barcha bosqichlarida uning shaxsiy hayotini to'la hurmat qilinishi.

Davlatimiz ham bolalar huquqlarini himoya qilish maqsadida ko'plab xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan va xalqaro hujjatlar asosida "Bola huquqlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilgan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasida 2008- yil mamlakatimizda "Yoshlar "yili 2010 -yil "Barkamol avlod " yili deb e'lon qilingan. Bola huquqlari masalasida so'z ketganda O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining XIV- bobning 77 , 78, 79-moddalarini e'tiborga olmaslikning iloji yo'q. Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetgunga qadar , boqishi , ularning tarbiyasi, ta'lim olishi , sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususiyatda g'amxo'rlik qilishga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni ,tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini sog'lom to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi . Shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi.(77- modda) Farzandlar ota-onasining nasl- sabidan va fuqarolik holatdan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan

to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlar yaratish davlatning majburiyatidir .

Onalik, otalik va bolalik davlat tomoni muhofaza qilinadi. Davlat va jamiyat bolalarini hamda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikda mamlakatdan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va vatanga bo'lgan mehr-muhabbatni shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. (78- modda) Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi. Ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Davlat yoshlarning ijodiy , jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun ularning ta'lim olishga, sog'ligini saqlashga, uy-joyga ,ishga joylashishga bandlik va dam olishiga bo'lgan huquqlarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. (79- modda) Bolalarning mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqi O'zbekiston respublikasi Mehnat kodeksida mustahkamlangan bo'lib, voyaga yetmaganlarni mehnat faoliyatiga jalb qilish, 16 yoshdan tavsiya qilinadi . 18 yoshgacha bo'lgan har qanday shaxs ishga olinayotgan paytda uning sog'lig'i to'g'risida to'la ma'lumotga ega bo'lingan taqdirdagina mehnat faoliyatiga qabul qilinishi mumkin . Aksariyat hollarda voyaga yetmaganlarni mehnat faoliyatiga jalb qilish 15 yoshdan kasbga tayyorlash maqsadida ham bo'lishi mumkin. Voyaga yetmaganlarning mehnat faoliyati davomida huquq va erkinliklari , qonuniy manfaatlari voyaga yetganlar bilan teng tarzda ta'minlab berilishi kerak va bolalar ta'lim muassasalarida tahsil olish bilan birga mehnat faoliyati bilan mashg'ul bo'lsalar, ularga turli imtiyozlar taqdim etiladi .

Voyaga yetmaganlar tungi ishlarga, ishdan tashqari ishlariga, hamda dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilmasligi kerak hamda bolalarning jismoniy faoliyatiga va ularning aqliy qobiliyatiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan temirchilik, gazpayvanchilik shaxstyorlik kabi kasblariga jalb qilinmasligi lozim.

Xulosa

Umuman, bolalarning huquqlari , ularning kafolatlari to'g'risida shuni xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimizda aholining katta qismini yoshlar

tashkil qiladi va bola huquqlarini ta'minlash va ularni himoya qilish masalasi mamlakatda demokratik, huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz takidlaganidek, "Oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz-mamlakatlarimizning Buyuk kelajagi ham, ertagi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham bularning barcha - barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib - o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent -2023
- 2.Inson huquqlari darslik - 2023
- 3.Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya-1989
- 4.O'zbekiston Respublikasining " Bola huquqlari to'g'risida"gi Qonuni - 2008
- 5.Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi-1948